Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	



BANK TIZIMI LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH VOSITALARI VA USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
"Moliya" kafedrası mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0003-0154-2362
b.poyonov@tsue.uz



Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklari transformatsiya jarayonida likvidlikni ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish orqali bank xizmatlari samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bank likvidligining mohiyati, rivojlanish bosqichlari va istiqbollari yoritilgan. Xususan, bank faoliyatida likvidlikni oshirishga qaratilgan amaliy vositalar va ularning joriy etilishi natijasida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha muallif tomonidan taklif etilgan yechimlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, bank likvidligi, likvidlik boshqaruvi, innovatsiyalar, bank xizmatlari, samaradorlik, yangi xizmat turlari.

Abstract: This article analyzes the opportunities for improving the efficiency of banking services during the transformation of Uzbekistan's commercial banks by enhancing the tools and methods for maintaining liquidity. It explores the essence of bank liquidity, its development stages, and future prospects. Special attention is given to the practical instruments for improving liquidity, the challenges arising from their implementation, and the author's recommendations for addressing these issues.

Key words: commercial bank, bank liquidity, liquidity management, innovations, banking services, efficiency, new types of services.

Аннотация: В статье анализируются возможности повышения эффективности банковских услуг в процессе трансформации коммерческих банков Узбекистана за счет совершенствования средств и методов обеспечения ликвидности. Раскрываются сущность ликвидности банка, этапы её развития и перспективы дальнейшего совершенствования. Особое внимание уделено практическим инструментам повышения ликвидности, выявленным проблемам их внедрения и авторским предложениям по их устранению.

Ключевые слова: коммерческий банк, ликвидность банка, управление ликвидностью, инновации, банковские услуги, эффективность, новые виды услуг.

KIRISH

Tijorat banklarining likvidlilik darajasini obyektiv baholash va uni samarali boshqarish uchun to'lovlarni tezkor amalga oshirish, depozit hisobvaraqlaridan mablag'larni o'z vaqtida va yo'qotishlarsiz qaytarish hamda majburiyatlarning to'liq bajarilishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda likvidlilikni mustahkamlash vositalari va usullarini joriy etish, boshqaruv usullarini to'g'ri tanlashda asosiy o'rin tutadi. Mazkur jarayon esa, o'z navbatida, boshqaruv subyektining obyektga qanchalik samarali ta'sir ko'rsata olishi bilan bevosita bog'liqdir.

Hozirgi kunda jahon mamlakatlari milliy iqtisodiyotlarida davom etayotgan moliyaviy inqiroz bank tizimi likvidligi zaiflashuviga, banklarning aktiv va passiv operatsiyalarida disbalans yuzaga kelishiga hamda iqtisodiy retsessiya holatlarining kuchayishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda bank tizimi faoliyatini barqarorlashtirish va samarali boshqarishni ta'minlash uchun likvidlikka ta'sir etuvchi omillarni doimiy tahlil qilish zaruriyati yanada ortib bormoqda. Bu esa bank faoliyatida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rishga imkon beradi.

Bugungi kunda ko'plab xorijiy mamlakatlar, xususan, Gretsiya, Irlandiya, Portugaliya, Ispaniya va Kipr kabi davlatlarning bank tizimlarida moliyaviy barqarorlikka tahdid soluvchi jiddiy muammolar kuzatilmoqda [1]. Ushbu holatlar milliy bank tizimi likvidligini mustahkamlash zaruriyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Xususan, pul bozori mexanizmlarini rivojlantirish, muddatli va barqaror resurs bazasini shakllantirish, bank aktivlari sifatini



o'shish, banklar va ularning filiallaridagi vakillik hisobvaraqlarida mablag' yetishmasligini moliyaviy resurslar bilan to'ldirish, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga yo'naltiriladigan investitsiyalar ulushini ko'paytirish, bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash va banklar o'rtasidagi raqobatbardoshlikni oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan jadal iqtisodiy islohotlar sharoitida bank tizimi likvidligini qo'llab-quvvatlash va uning barqarorligini ta'minlash maqsadida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Bunga bank tizimining huquqiy asoslari va infratuzilmasini takomillashtirish, investitsiyalarni samarali jalb qilish, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga investitsiya hajmini oshirish, uzoq muddatli resurslar tanqisligi sharoitida qisqa muddatli resurslardan oqilona foydalanish, banklarning depozit bazasida muddatli va jamg'arma depozitlar ulushini ko'paytirish hamda muddati o'tgan va muammoli kreditlar miqdorini keskin kamaytirishga qaratilgan tizimli choralar kiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish borasida iqtisodchi olimlarning bir qator yondashuvlari mavjud. Xususan, M.B. Dichenko, Yu.V. Konovolova, A.N. Volkov, N.P. Belotelova, A.V. Naprienko, B.A. Bazirov, L.A. Askerova, O.B. Sattarov, V.V. Ivanov, I.V. Larionova, M.A. Pomorina va K.K. Filimonova-Arutyunova singari tadqiqotchilar bank likvidligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar tarkibini ilmiy jihatdan o'rganib chiqqanlar. Fikrimizcha, tijorat banklari likvidligiga ta'sir etuvchi omillar va elementlardagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu omillar o'zaro uzviy bog'liqlikda harakatlanadi va shu orqali tizimning yaxlitligini ta'minlaydi [2].

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, jumladan, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [3].

Bank nazorati bo'yicha Bazon qo'mitasi esa likvidlikni "aktivlarning o'sishini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash va so'ndirilishi kerak bo'lgan majburiyatlarni yo'qotishlarsiz bajarishdagi bankning imkoniyati" tarzida tavsiflaydi [4]. Ushbu xalqaro tavsiyaviy hujjatda likvidlik atamasi jahon bank amaliyotiga xos tarzda ifodalangan.

Taniqli iqtisodchi olimlarning likvidlikka oid ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy o'rganish natijasida bank likvidligi mohiyatini to'liqroq ochib berishga xizmat qiluvchi quyidagi ta'rif shakllantirildi: "Bank likvidligi – bank faoliyatiga miqdoriy baho va sifatli tavsif beruvchi ko'rsatkich bo'lib, zarur vaqtda moliya bozoridan likvid mablag'larni arzon narxlarda jalb qilish, aktivlar o'sishini resurslar bilan ta'minlash, bank risklarini kamaytirish, yuqori likvidli va likvid aktivlar hajmini maqbul darajada mustahkamlash hamda muddatidan o'tgan va shartli majburiyatlarni o'z vaqtida va yo'qotishlarsiz to'liq bajarish imkoniyatidir" [5].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim T. Qoraliyevning fikricha, "bank likvidligi – bu o'z aktivlarini naqd pul sifatida ishlatishi yoki ularning nominal qiymatini saqlab qolgan holda mablag'larga tezda aylantirib, mavjud moliyaviy majburiyatlarini qoplash qobiliyatidir" [6]. Sh.Z. Abdullaeva esa tijorat banki likvidligini "bankning barcha mijozlar oldidagi qarz va moliyaviy majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida qoplash imkoniyati" sifatida ta'riflaydi [7]. O.B. Sattarov esa bank likvidligini "bankning joriy va kelajakdagi majburiyatlari va to'lovlarini, kreditlar bo'yicha mijozlar talablarini o'z vaqtida va kerakli miqdorda bajarish, aktivlarni hech qanday zarar ko'rmasdan naqd pulga aylantirish yoki maqbul narxlarda moliyaviy resurslar sotib olish qobiliyatlarining yig'indisi" deb ta'riflaydi [8].

Mazkur tariflarda bank faoliyatiga berilgan umumiy miqdoriy baholar, sifatli tavsiflar, aktivlarning o'sishini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, moliya bozoridan asosiy va qo'shimcha likvid mablag'larni maqbul narxlarda jalb qilish, bank risklarini kamaytirish kabi parametrlar yetarlicha to'liq aks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yilgan talablar to'g'risida"gi Nizomida bank likvidligi "bankning majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish imkoniyati" tarzida ta'riflangan [9]. Ushbu Nizomda bank likvidligi qisqacha va aniq ifodalangan.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinadiki, hanuzgacha jahon bank amaliyotida likvidlikni ta'minlashning yagona optimal usuli ishlab chiqilmagan. Hozirgi zamonda likvidlikni ta'minlashga oid mavjud yondashuvlar va usullar banklarning iqtisodiy faoliyati talablariga to'liq javob bermaydi hamda yagona universal texnologiyaning yo'qligi bilan ajralib turadi. Har bir bank o'z sharoitidan kelib chiqib, likvidlikni ta'minlash uchun mos bo'lgan usullarni mustaqil tanlaydi. Shu sababli ham bank likvidligini mustahkamlash usullari har bir bank uchun o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ilmiy manbalarda esa bank likvidligini mustahkamlashga doir turli xil usullar tavsiya etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli tahlil, empirik tahlil va boshqa ilmiy usullardan foydalanildi. Ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida tijorat banklari likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berildi. Qiyosiy taqqoslash usuli asosida esa jahon tajribasi va rivojlangan mamlakatlar amaliyotida likvidlikni ta'minlash orqali banklar faoliyati



samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy asoslar tahlil qilindi hamda ular O'zbekistondagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro bank amaliyotida banklarning likvid mablag'larga bo'lgan talabini baholashda odatda uchta asosiy yondashuv – mablag'lar manbalari va ulardan foydalanish tahlili, mablag'lar tarkibi tahlili hamda likvidlik ko'rsatkichlari asosida baholash usullari qo'llaniladi.

Mablag'lar manbalari va ulardan foydalanish usuli ikki asosiy tamoyilga tayanadi. Birinchidan, agar bankda depozitlarning umumiy hajmi ortib, qarz portfeli qisqarsa, bu likvid mablag'larning oshishiga olib keladi. Ikkinchidan, agar depozitlarning hajmi kamayib, aksincha, qarzlar hajmi oshsa, bankda likvid mablag'larning kamayishi kuzatiladi. Bank amaliyotida ushbu usuldan foydalanishda, mablag'larning manbalari va ulardan foydalanish o'rtasidagi nisbatning uzluksiz monitoringi va tahlili zarur. Agar mablag'lar kirimi va chiqimi o'rtasida jiddiy tafovut yuzaga kelsa, bank tizimida likvidlik nomutanosibligi shakllanadi.

Agar likvid mablag'lar manbalarining hajmi chiqimlardan ortiq bo'lsa, bank tizimida ijobiy likvidlik farqi yuzaga keladi. Bunday holatda ortiqcha likvidlik qisqa muddat ichida investitsiya faoliyati orqali samarali yo'naltirilishi lozim. Aksincha, agar mablag'lardan foydalanish darajasi ularning manbalaridan oshib ketsa, bu bank tizimida salbiy likvidlik farqi vujudga kelishiga olib keladi. Salbiy tafovut esa likvid mablag'lar tanqisligini anglatib, bank moliyaviy barqarorligiga xavf tug'diradi.

Ushbu baholash metodikasining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. likvidlikni rejalashtirish davriga ko'ra kreditlar va depozitlar miqdorining prognoz ko'rsatkichlarini shakllantirish;
2. likvidlikni rejalashtirish davrida kreditlar va depozitlar miqdori dinamikasini baholash;
3. likvidlikni rejalashtirish davriga asosanib, bankning likvidlik pozitsiyasini baholovchi netto-likvidlik ko'rsatkichini aniqlash.

Ushbu yondashuv yordamida banklar o'z likvidlik holatini baholashda turli statistik va matematik usullardan foydalanadilar. Xususan, kredit va depozit oqimlarini aniqlik bilan prognoz qilish, mablag'larning oqimini tartibga solish, ularning harakatini nazorat qilish orqali likvidlikni boshqarish imkoniyati ortadi.

Misol sifatida, bankning iqtisodiy bo'limi likvid mablag'lar tahlilida quyidagi bog'liqliklardan foydalanishi mumkin:

- depozitlar va kreditlar o'rtasidagi o'zaro nisbatlar dinamikasi;
- majburiyatlarning muddatliliigi va tarkibiy tuzilmasi;
- faol va passiv operatsiyalar o'rtasidagi balans holati;
- likvid aktivlar va qisqa muddatli majburiyatlar nisbatining monitoringi.

Yuqoridagi yondashuvlar asosida bank o'z likvidlik siyosatini yanada samarali shakllantirishi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi va resurslardan foydalanishni optimallashtirishi mumkin.

$$y_1 = f(x_1, x_2) \text{ va } y_2 = f(x_3, x_4) \quad (1)$$

Bunda y_1 - kelgusi davrda kutilayotgan jami kreditlarning o'zgarishi; y_2 - kelgusi davrda kutilayotgan mablag'larning ortiqchalik yoki tanqislik darajasi; x_1 - mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sish prognozi; x_2 - korporatsiyalar daromadlarining choraklik prognozi; x_3 - omonat va nodepozit majburiyatlarining o'zgarishi; - jami kreditlar hajmidagi prognoz o'zgarishlar.

Shuni ta'kidlash lozimki, mablag'lar manbalari va ulardan foydalanish usuli bank rahbariyatiga kredit va depozit operatsiyalari, mablag'larning yetishmovchiligi yoki ortiqchaligi haqidagi miqdoriy prognoz variantlarini taqdim etish imkonini beradi.

Mablag'lar tarkibi usuli yordamida esa bankning likvid mablag'larini hisoblashda depozit va nodepozit majburiyatlar ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar uchta asosiy toifaga ajratiladi va ularning har biri alohida tahlil qilinadi:

1. "Qaynoq pullar" bo'yicha majburiyatlar – omonatlar, boshqa pul mablag'lari va majburiy zahira jamg'armalari bo'lib, foiz stavkalaridagi o'zgarishlarga bevosita sezgirlik xususiyatiga ega.

2. Ishonchli mablag'lar – mijozlar tomonidan istalgan vaqtda yechib olinishi mumkin bo'lgan omonatlar toifasiga kiradi.

3. Barqaror mablag'lar – bu asosiy omonatlar va uzoq muddatli majburiyatlardir, ularni bank rahbariyati maqsadli ravishda shakllantiradi.

Ushbu usul, xususan, bank likvid mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni aniq baholash orqali likvidlik darajasini optimallashtirish imkonini yaratadi.

Likvidlik ko'rsatkichlari usuli esa ko'pincha bank faoliyatining o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlarini aniqlashda qo'llaniladi. Ushbu usul orqali banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari, ya'ni likvidlik indikatorlari aniqlanadi. Likvidlik indikatorlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- pul mablag'lari ko'rsatkichi (pul mablag'lari + jamg'arma muassasalardagi omonatlar + jami aktivlar);
 - likvid qimmatli qog'ozlar ko'rsatkichi (hukumat qimmatli qog'ozlari + jami aktivlar);
 - majburiy zahira jamg'armasining sof pozitsiyasi (federal zahira tizimidagi qoldiq – sotib olinadigan majburiy zahira jamg'armalari + jami aktivlar);
 - quvvatlardan foydalanish koeffitsienti (sof kreditlar va ijara aktivlari + jami aktivlar);
 - qimmatli qog'ozlar portfelining ulushi (bank balansidagi qimmatli qog'ozlar ulushi);
 - "qaynoq pullar" ulushi (bozor aktivlarining pul shaklidagi qismlari + bozor majburiyatlarining pul shaklidagi qismlari + evrovalyutadagi depozitlar va qarz majburiyatlari + sotilishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlar qiymati);

- qisqa muddatli investitsiyalarning bank majburiyatlariga nisbati (qisqa muddatli investitsiyalar + majburiyatlarning foiz stavkasi o'zgaruvchanligi);
 - broker depozitlari ko'rsatkichi (broker depozitlari + jami depozitlar hajmi);
 - asosiy depozitlarning ulushi (asosiy depozitlar + jami aktivlar);
 - omonat portfelining tuzilma koeffitsienti (talabga binoan olinadigan depozitlar + muddatli depozitlar) [10].

Bundan tashqari, iqtisodiy-matematik usullar bank likvidligini ta'minlash, rejalashtirish va boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda banklar faoliyatida ko'plab ma'lumotlar oqimini tahlil qilish va tezkor qarorlar qabul qilish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Bank likvidligini boshqarish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:


1. Birinchi bosqichda bank likvidligi bo'yicha maqsadlar belgilanadi va mavjud voqea-hodisalar hamda ular o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi.

2. Ikkinchi bosqichda esa bank likvidligini ifodalaydigan matematik model ishlab chiqiladi, bunda optimallik mezon sifatida ko'pincha maqsad funksiyasi shakllantiriladi.

3. Uchinchi bosqichda maqsad funksiyasiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar, asosiy qonuniyatlar o'rganiladi.

4. Nihoyat, to'rtinchi bosqichda olingan tahliliy natijalar asosida bank likvidligini ta'minlashga qaratilgan amaliy rejalar ishlab chiqiladi.

Shu tarzda, banklarning likvid mablag'lar holatini baholash va boshqarish usullarini kompleks tahlil qilish orqali, tijorat banklari likvidligini mustahkamlash va moliyaviy barqarorlikni oshirish imkoniyatlari aniq va tizimli tarzda belgilanadi.



1-rasm. Bank tizimida likvidlilik darajasini baholash usullari¹

1 Муаллиф ишланмаси



Hozirgi vaqtda bank sektorining rentabellik ko'rsatkichlarida pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, banklarning kapital rentabelligi (ROE) 11 foizni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,7 foiz bandga pasaygan. Ushbu pasayish dinamikasini 2023-yil 1-iyul – 2024-yil 1-iyul oralig'ida banklarning sof foydasi 9 foizga kamaygani bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga, operatsion xarajatlar va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarning qisqarganiga qaramasdan, bank tizimi rentabelligini oshirishda yetarli ta'sir ko'rsatilmagan.

Xususan, 2024-yil 1-iyul holatiga bank tizimi bo'yicha NSFR (Net Stable Funding Ratio) ko'rsatkichi medianna qiymatidan 8 foiz bandga past darajada shakllangan. Shu bilan birga, 2023-yil 1-iyul – 2024-yil 1-iyul oralig'ida LCR (Liquidity Coverage Ratio) ko'rsatkichi 16 foiz bandga oshgan bo'lsa-da, medianna qiymatga nisbatan 47 foiz band past darajada saqlanib qolgan. LCR ko'rsatkichining oshishi, asosan, yuqori likvidli aktivlar hajmining 27 foizga o'sishi bilan bog'liq.


Bundan tashqari, 2024-yilning birinchi yarmi yakunlariga ko'ra, yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati 14,4 foizni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,8 foiz bandga o'sdi. Ushbu o'sishni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- banklarning Markaziy bankdagi mablag'lari (majburiy zahiralar hisobga olinmagan) 3,4 trillion so'mga oshdi;

- boshqa banklardagi mablag'lar 13,1 trillion so'mga ko'paydi;

- davlat qimmatli qog'ozlari portfeli esa 2,8 trillion so'mga o'sdi.

Bu ma'lumotlar bank tizimida likvidlik zaxiralari ortib borayotganini ko'rsatadi, biroq mavjud ko'rsatkichlar baribir sektorning umumiy moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun qo'shimcha choralarni talab qilmoqda.



2-rasm. Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati², foizda

Bugungi kunda muammoli kreditlarning zahiralar bilan qoplanganlik darajasining pasayishi kuzatilmoqda. 2024-yil I yarim yillik yakuniga ko'ra, muammoli kreditlarni qoplash koeffitsienti 30 foizni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 38 foizga kamaygan.

Shuningdek, 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, zahiralar chegirib tashlangan holdagi muammoli kreditlarning regulyativ kapitalga nisbati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4 foiz bandga oshib, 12 foiz darajaga yetdi.

Mazkur ko'rsatkichlarning pasayishi banklarning kreditlar bo'yicha yuzaga keladigan yo'qotishlarga bardoshlilik darajasini zaiflashtirishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Bu esa bank sektorining moliyaviy barqarorligini saqlab qolish uchun risklarni boshqarish tizimini yanada kuchaytirishni talab etadi.

Bank likvidligi bilan bog'liq ekstremal masalalarni yechish uchun matematik modellashirish usullaridan keng foydalanilmoqda. Bunda banklarning likvidlik holatini modellashirish uchun, hisoblash ishlari zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi.

2 <https://cbu.uz/> sayti ma'lumotlari asosida tuzildi



Masalaning hajmiga qarab, dastlab ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi. Keyinchalik, tuzilgan maxsus matematik modellar asosida bankning aktiv va passiv operatsiyalarini muvofiqlashtirish, resurslarni optimal taqsimlash va risklarni minimallashtirish uchun dasturiy vositalardan foydalaniladi.

Bu jarayon natijasida bank likvidligini barqaror saqlash va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari oshiriladi. Shuningdek, modellashtirish bankning moliyaviy holatini prognoz qilish, noxush vaziyatlarda tezkor choralar ko'rish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan izlanishlar natijasida bank likvidligining tasnifi va tavsifi shakllantirildi. Ushbu jarayon orqali bank likvidligining mazmuni va mohiyatidagi ilgari ochilmagan ichki qirralar umumiy, ma'muriy, innovatsion va korporativ yondashuvlar asosida baholandi. Bank likvidligining umumlashtirilgan prinsiplari o'zaro bog'liqlikda harakatlanishi orqali tizimning yaxlitligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, uning ayrim prinsiplari mustaqil harakatlanishi va rivojlanishi natijasida tizimga va butun iqtisodiyotga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Bank likvidligi atamasi o'z tabiatiga ko'ra ko'p qirralik, ko'p o'lchamlik, ko'p omillik va dinamik xususiyatlarga ega tushuncha hisoblanadi. Ushbu atama "to'lovga qodirlik", "kreditga layoqatlilik", "ishonchlilik" va "barqarorlik" kabi tushunchalar bilan o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular o'rtasida farqlar mavjud. Bank likvidligi ko'pincha yuqoridagi atamalar bilan sinonim sifatida qabul qilinadi yoki ular bilan tenglashtirib qo'llaniladi. Shu boisdan, bank likvidligini baholashda bu tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yevropa Markaziy banki rasmiy veb-sayti – <https://www.ecb.europa.eu>
2. Abdullayev A.Ya. Bank likvidligiga ta'sir qiluvchi omillar va ularga xos bo'lgan xususiyatlar // Biznes-Ekspert. – T., 2013. № 6. – B. 22–27.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.
4. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Principles for the management and supervision of liquidity risk, June 2008, p. 1–35.
5. Abdullayev A.Ya. Bank likvidligini boshqarishdagi ilmiy-nazariy evolyutsiyaning dolzarb masalalari // Biznes-Ekspert (Birja ekspert). – T., 2013. № 1–2. – B. 8–11.
6. Qoraliyev T., G'. Yaxshiboyev (2006). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta'minlash mexanizmi. – Toshkent: Akademiya, – B. 98–99.
7. Abdullayeva Sh. Bank ishi. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – 180 b.
8. Sattarov O.B. Tijorat banklari likvidligini ta'minlashni takomillashtirish. I.f.d. ilmiy daraja olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: BMA, 2008. – 18 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli ("Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2015. № 32, B. 141–152).
10. Rouz Piter S. Bankovskiy menedjment: Predostavleniye finansovoykh uslug. – M.: Delo LTD, 1995. – 743 s.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
